

## Adiblar hiyoboniga tashrif

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2018 yil 10 yanvarda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahrida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrifi jarayonida berilgan ayrim topshiriqlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan chora - tadbirlar dasturi" (11.01.2018y., 01 - 07/1 - 3356)da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, 2018 yil 7 iyun kuni "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari J.Turdiyev, guruh murabbiysi X.Djamalova va bir guruh talabalar Poytaxtimizdagi Adiblar xiyoboniga tashrifi amalga oshirildi. Tashrif davomida talabalar o'zbek adabiyotining buyuk darg'alari shoir va yozuvchilarning xotirasiga bag'ishlab bunyod etilgan monumentlarni borib ziyorat qildilar, ularning ruhlarini shod qildilar. Talabalarda xiyobonda sayr qilish jarayonida buyuk adiblarimizning o'chmas ijodibi bilan yana bir bor oshno bo'lgandek, hayajonga tushdilar, ularda kitob o'qish va kitobga mehr hissini oshirishga xizmat qiladi.



**"SXTE va B" fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev**